

AXBOROT VOSITALARI TUSHUNCHASI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Raxmonova Sarvinozoy Xasanboy qizi

Andijon Davlat Pedagogika Insitituti

Magistratura bo'limi "Pedagogika va psixologiya" kafedrası

Pedagogika yo'nalishi 1- bosqich Magistranti

s93539029@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur ishda axborot vositalari tushunchasi, ularning kelib chiqishi va ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida axborotning jamiyat hayotidagi o'rni, xususan, ta'lim tizimiga ta'siri tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini samarali tashkil etish, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini berishi asoslab berilgan. Shuningdek, axborot jamiyatining shakllanishi, uning moddiy-texnik asosi hamda ta'limda innovatsion yondashuvlarning zarurligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot vositalari, axborot texnologiyalari, ta'lim jarayoni, raqamli ta'lim, axborot jamiyati.

Kirish

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli asrning kirib kelishi natijasida axborot almashinuvi tezligi oshib, insonlar o'rtasidagi muloqot imkoniyatlari kengaydi hamda turli xil ma'lumotlarga qisqa vaqt ichida erkin kirish sharoiti yaratildi. Ushbu jarayon ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etib, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, bilimlarni yetkazish va o'zlashtirishning yangi usullarini joriy etishga zamin yaratmoqda. Zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini faollashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng “kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta’lim sifatiga e’tibor yanada kuchaydi. Unda o‘qituvchi bilim malakalarini oshirish o‘quvchilar, talabalar bilan ishlashda yetarlicha bilim va malakalarga ega bo‘lish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Ushbu kurslar asosan ta’limda innovatsion qurilmalar ya’ni kompyuter imitatsion modellarni dars jarayonlarida qo‘llash hamda zamonaviy texnologik qurilmalardan keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatlarini berdi.

“Axborot” (lot. *Information* – tanishtirish, tushuntirish) – falsafada qadim zamonlardan buyon qo‘llanilib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma’no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha. Axborot tushunchasi xususiy fanlar uchun umumiy bo‘lib qoladi. G‘oyalar yig‘indisi va matematik vositalar kompleksini o‘z ichiga olgan. Axborotga yondashuv esa, umumiy tadqiqot vositasiga aylandi. Axborotning mazmuni va aksiologik tomonlari semantic va pragmatic qarashlar doirasida tadqiq qilinadi. Hozirgi zamon fanida axborot tushunchasining taraqqiyoti turli tuman dunyoqarashlar, falsafiy tushuntirishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘tgan asr oxirida axborot vositalarining nihoyata ko‘payishi bu asrni axborot asri deb atalishiga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan samarali foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Bu jamiyatda ko‘pchilik ishlovchilar axborot, uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo‘ladi. Axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol etishga yo‘naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste’mol etiladiki, bu holatlar aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Ushbu jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter

texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi.

Barkamol shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida mavjud bo'lgan ayrim an'analardan voz kechish zaruriyati tug'ilmoqda. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan an'anaviy ta'lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta'minlagan holda o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hozirgi raqamli asr sharoitida axborot vositalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi. An'anaviy ta'lim usullarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayonini axborotlashtirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Falsafa: qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharir Q.Nazarov) T.:Sharq, 2004.40-b.
2. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 2017.№2.
3. Egamberganov, I. Sh. (2022). FORMATION OF RESEARCH COMPETENCIES IN STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(11), 508-513.
4. Rakhmonov, M. A. (2022). WIDE POSSIBILITIES OF USING INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(11), 514-521.

5. Khasanova, G. K. (2021). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, ^ (Special Issue 1),